



PAPER

O‘ZBEK TAQINCHOQLARI NOMLARINING XREMATONIMIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Yusupova D.Y.^{1,*}

¹Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida doktoranti

*dilyusupova3330@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o‘zbek milliy zargarlik buyumlarining nomlari, ularning afsonaviy–semantik ma‘nolari va talqinlari, tematik–leksik toifalari va foydalanish xususiyatlari o‘rganilgan. Til va madaniyat chorrahasida zargarlik san‘ati bilan bog‘liq tarixiy, afsonaviy va ramziy lingvokultural birliklarning ichki mohiyatini, madaniy semantikasini va pragmatik ahamiyatini ochishga harakat qilingan.

Key words: xrematonim, lingvokulturalogiya, semantika, milliy kod, zargarlik leksikasi.

Introduction

Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarni turli mezonlar asosida o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan esa taqinchoqlar bilan bog‘liq leksika xalqning dunyoni qanday tasniflaganini, qanday konseptual tizimga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu birliklarni tilshunoslik doirasida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, xrematonimlar – inson tomonidan yaratilgan moddiy buyumlar nomlari – tilning muhim qatlamini tashkil etadi.

N. V. Podolskaya ta‘rifiga ko‘ra, xrematonimlar inson tomonidan yaratilgan moddiy obyektlar nomlarini bildiruvchi onomastik birliklar bo‘lib, ular til tizimida nafaqat nominativ, balki muhim

madaniy–semantik funksiyani ham bajaradi. Ushbu turdagi ismlarga qurol–aslaha, musiqa asboblari, zargarlik buyumlari, uy –xo‘jalik buyumlari, aksessuarlar va qimmatbaho toshlarni kiritish mumkin.

O‘zbek xalqining boy madaniy merosida zargarlik san‘ati alohida o‘rin egallaydi va ushbu soha bilan bog‘liq leksik birliklar milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Zargarlik buyumlari nomlarini xrematonimlar sifatida o‘rganish ularning nafaqat nominativ, balki semantik va madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. O‘zbek xalqi nafaqat gapirish qobiliyati, balki boy madaniyati bilan ham tanilgan. Zargarlik asrlar davomida estetik jihatdan chiroyli, kishini o‘ziga tortadigan jihatlarga ega bo‘lib kelgan

Compiled on: May 5, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

va hali ham mavjud xalq tarixini o'rganishda qimmatli, milliy –madaniy ma'no kasb etuvchi manba hisoblanadi. O'zbek zargarlik san'ati bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarida taqinchoqlar etnografik jihatdan tahlil qilinib, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Taqinchoq nomlari onomastik tizimning muhim qismi hisoblanadi. Ular insonning kognitiv tasniflash jarayonini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi zargarlik buyum nomlari funksional jihatdan quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Bosh va soch bezaklari: tillaqosh, sersoq, kokil bezaklari;


Quloq bezaklari: sirg'a, halqa sirg'a;

Burun bezaklari: burun sirg'asi;

Bo'yin bezaklari: marjon, tumor, zanjir;

Qo'l bezaklari: uzuk, bilaguzuk;

Kamar bezaklari: kamar va osma bezaklar.



Mazkur tasnif xrematonimlarning semantik tizimini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, madaniy qadriyatlar, jumladan, madaniy meros va milliy ruhning timsoli hamdir. Birgina bosh kiyim misolida ko'radigan bo'lsak, bosh kiyimning bir nechta ijtimoiy funktsiyalari, xususiyatlari, oilaviy holati, estetik va diniy xususiyatlarini jamlanganligini ko'ramiz. Ayollar bosh kiyim sifatida, asosan, ro'mol o'ragan. Yoshi va mavqeiga, oilaviy ahvoliga qarab doka ro'mol (kamtarinlik), shol ro'mol (hurmat, salobat, nafislik vayoshi kattalik), g'ijim ro'mol (go'zallik va tabiiylik) va boshqalar xil ro'mollar o'ralgan (o'ralish usuli ham turlicha bo'lgan). Qizlar uchun qulay bosh kiyimi do'ppi hisoblangan va sochlar uchiga jamalak taqilgan. Jamalak bezagi sifatida kumush, tilla tangalar ishlatilgan. Bu ham o'z o'rnida ijtimoiy mavqeyini belgilab bergan. Bu faqat bezak emas, balki sochni tartibda ushlab turish vazifasini ham bajaradi. Qadimdan xalqimizda "

ayolning ruhi- uning sochi bilan bog'liq" degan e'tiqod mavjud bo'lgan.

Buvilarimiz tomonidan " Sochni har qanday joyga tashlab ketish mumkin emas " degan taqiqlari bejizga emasligiga amin bo'lamiz. Chunki soch ayolning qadr-qimmatini va ichki mohiyatining belgisi sanalib kelinadi. Bundan tashqari qizlar sohidagi jamalak- yoshlik, go'zallik ramzi sifatida milliy kod vazifasini ham bajaradi. Shu bilan bilan birgalikda jamalak uchiga har xil tumorlar bog'lab qo'yilgan. Tumor ichiga turli xil duolar yoki ko'zmunchoqlar taqib qo'yishgan. Bu o'z o'rnida himoya, turli xil yomonliklardan asrovchi himoya ramzi sifatida qaralgan. Do'ppilar ham har bir hudud bo'yicha bezaklarda farq qilgan. Chust, Buxoro, Marg'ilon, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari buning yorqin misolidir.

Qadimda o'zbek ayollari taqqan taqinchoqlar maqsadlariga qarab guruhlariga bo'lingan: boshga, peshonaga, peshona-chakkaga, peshona-chakka-bo'yiga, chakkaga, gardanga, sochga taqiladigan taqinchoqlar, sirg'alar, qo'l taqinchoqlari va boshqalar. To'liq to'plam to'y kunlarida ishlatilgan. Ko'krak bezaklari orasida zebigardon, nozigardon, bo'yintumor, qo'ltiqumor; peshona-chakka taqinchoqlari orasida silsila, bibishoh, mohitilla, tavq va boshqalar keng tarqalgan. Kelinlar boshlariga tillaqosh, peshonaband taqishgan. Peshonaband forsiydan tarjima qilinganda, peshonasi band, boshi bog'liq, turmushga chiqqan ma'nolarini anglatgan. Zargarlik taqinchoqlari nafaqat taqinchoq, balki yosh va ijtimoiy holatga urg'u beruvchi belgilar ham hisoblangan. Tumor zargarlik buyumlarining maxsus turidir. Tumor sohibasini turli nazar-nafasdan asrash maqsadida taqilgan. Bo'yintumor, ko'kraktumor yoki qo'ltiqumorlar bir-biridan tashqi ko'rinishi hajmining katta-kichikligi bilan farqlangan bo'lsa-da, maqsad va vazifalari bir xil bo'lgan. Ular uchburchak, to'rtburchak yoki silindr shaklidagi g'ilof ko'rinishida bo'lib, uning ichiga duo yozilgan qog'oz taxlab solingan. Ayollar tumorlardan boshqa maqsadlarda ham foydalanishgan, masalan, unga dori-darmon yoki muattar hid taratuvchi vositalar solib yurishgan.

Zargarlar har bir qimmatbaho toshning o'z qiymati va o'ziga xos xususiyati borligini yaxshi bilgan. Ba'zi toshlar inson yo'lini ochib, baxt va

baraka keltiradi, boshqalari esa ko‘z tegishidan saqlaydi, yana ayrimlari esa qurg‘oqchilik paytida yomg‘ir chaqirish kuchiga ega deb ishonilgan. O‘zbek an‘anaviy zargarlik san‘ati ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, u nafaqat estetik didni, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, diniy qarashlari va dunyoqarashini ham aks ettiradi. Taqinchoqlar funksional jihatdan bir necha guruhlariga ajratilgan bo‘lib, ular tananing muayyan qismlariga mos holda ishlab chiqilgan. Ushbu tasnif antropologik va etnografik nuqtai nazardan muhim bo‘lib, inson tanasi va bezak o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Masalan, bosh va peshona uchun mo‘ljallangan taqinchoqlar (tillaqosh, peshonaband) ayolning oilaviy maqomini ifodalagan. Peshonaband atamasining forsiy ildizga ega bo‘lishi madaniy aloqalar va tarixiy integratsiya jarayonlarini ko‘rsatadi. Ko‘krak va bo‘yin sohasidagi taqinchoqlar, xususan zebigardon, nozigardon va bo‘yintumorlar nafaqat bezak, balki himoya funksiyasini ham bajargan. Tumorlar ichiga yozilgan duo yoki muqaddas matnlar orqali insonni “yomon ko‘z” va salbiy energiyalardan himoya qilish g‘oyasi doirasida tushuntiriladi. Bu hodisa ko‘plab xalqlarda uchraydi va universal madaniy fenomen hisoblanadi. Tumorlarning geometrik shakllari (uchburchak, to‘rtburchak, silindr) ham ramziy ma‘noga ega. Masalan, uchburchak shakl ko‘pincha muqaddaslik va himoya timsoli sifatida talqin etiladi. Bundan tashqari, ularning ichiga faqat diniy matnlar emas, balki dorivor o‘simliklar yoki xushbo‘y moddalar joylashtirilishi ularning amaliy funksiyasini kengaytirgan.

Qimmatbaho toshlarga bo‘lgan e‘tiqodlar keng doirada o‘rganiladi. Har bir toshning o‘ziga xos energetik yoki ramziy kuchga ega ekanligi haqidagi qarashlar xalq og‘zaki ijodi va mifologik tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, ayrim toshlar baraka keltiradi deb hisoblangan bo‘lsa, boshqalari ofat va balolardan asraydi degan ishonch mavjud bo‘lgan. Shunday qilib, o‘zbek zargarlik taqinchoqlari ko‘p qatlamli ma‘no tizimiga ega bo‘lib, ular estetik, ijtimoiy, diniy va himoyaviy funksiyalarni birlashtirgan murakkab madaniy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek an‘anaviy taqinchoqlarini o‘rganishda ularning nafaqat shakliy va funksional jihatlari,

balki ishlab chiqarilish texnologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zargarlik buyumlari asosan kumush, oltin va turli qimmatbaho hamda yarim qimmatbaho toshlardan tayyorlangan. Ayniqsa, kumushning keng qo‘llanilishi uning xalq orasida “tozalovchi” va himoya qiluvchi xususiyatlarga ega deb qaralganligi bilan izohlanadi. Zargarlik buyumlarini bezashda qo‘llanilgan uslublar — zarb berish, quyma, o‘ymakorlik, donalash (granulyatsiya), filigran (simdan bezak yaratish) kabi texnikalar yuqori darajadagi hunarmandchilik an‘analaridan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek zargarligining nuqtai nazaridan ham katta ilmiy qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Taqinchoqlarning ijtimoiy funksiyasi alohida e‘tiborga loyiq. Ular ayolning yoshini, oilaviy holatini, hatto iqtisodiy mavqeini ham ifodalagan. Masalan, og‘ir va ko‘p elementli taqinchoqlar boylik va yuqori ijtimoiy maqom belgisi bo‘lgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda qizlar va turmushga chiqqan ayollar taqadigan taqinchoqlar keskin farqlangan. Bu esa jarayonining an‘anaviy ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi.

Marosim bilan bog‘liq kontekstda taqinchoqlar ayniqsa muhim o‘rin egallagan. To‘y marosimlarida kelinning to‘liq taqinchoqlar majmuasi bilan bezatilishi uning yangi ijtimoiy maqomga o‘tishini bildirgan. Bu jarayon inson hayotidagi muhim bosqichlarning ramziy ifodasini tashkil etadi.

Hududiy farqlar ham zargarlik buyumlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Samarqand maktablariga xos uslublar o‘ziga xos shakl, naqsh va bezak elementlari bilan ajralib turadi. Bu farqlar tarixiy savdo yo‘llari, madaniy almashinuv va mahalliy an‘analar bilan bog‘liq holda shakllangan. Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek zargarlik san‘ati ta‘sirida rivojlangan murakkab madaniy tizimning bir qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, taqinchoqlarda ishlatilgan ornamentlar (islamiy, girih, geometrik shakllar) ham chuqur semantik ma‘noga ega. Ular ko‘pincha tabiat, koinot va hayotiy energiya haqidagi tasavvurlarni ifodalagan. Bu esa ularni nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek an‘anaviy zargarlik taqinchoqlari ko‘p qatlamli

madaniy va lingvistik tizimni tashkil etadi. Ular estetik, ijtimoiy, diniy va ramziy funksiyalarni o'zida mujassam etadi. Taqinchoq nomlari esa xalqning tarixiy xotirasi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvokultural birlik sifatida namoyon bo'ladi.

References

1. Azimova D. Central Asian Jewelry Art. – Tashkent, 2005.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. Yusupova D.Y. About Some Names Of Precious Stones Vol. 2 No. 5 (2025): TLEP – International Journal of Multidiscipline.
4. Yusupova D. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari // "ALISHER NAVOIY VA XXI ASR" mavzusidagi 10-uluslararo konfrensiyasi materiallari. – Toshkent-Chimkent, 2025. –60-63-b.